



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash

Suyunova Dildora Hasan qizi

JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil qilish, umumta'lim muassasalarini imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus moslamalar(ko'tarish moslamasi, pandus, tutqich va boshqalar) va shu bolalarga ta'lim beruvchi maxsus kadrlar (maxsus pedagoglar, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash, imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga qaratilayotgan e'tibor, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida davlatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar va amalga oshirilgan yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan muammolar haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar:Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bola, ko'tarish moslamasi, pandus, tutqich, maxsus pedagog, mutaxassis

Abstract: The article provides information on the problems that need to be solved, along with the decisions and work done by our state on the education of children with special needs in the general education system, including general provision for the education of children with special needs, special devices for children with special needs (visual aids, ramps, handrails, etc.).



Keywords: Inclusive education, disabled child, lifting device, ramp, handrail, special pedagogue, specialist.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan deb qabul qilingan bolalar, ularning ijtimoiy ahvoli, ularning ta'lim olish masalasi hozirgi kunda butun dunyo miqyosidagi eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki muammoning tegishli ravishda ijobiy yechimining topilishi insoniyat kelajagini, farzandlarimizning farovon turmush kechirishining muhim omillaridan biridir. Ayni paytda yer kurrasi bo'ylab sodir bo'layotgan turli tabiiy ofatlar, ekologik balansning buzilishi, va buning oqibatida insoniyat hayoti, uning immun tizimining buzilishi ehtimolini tug'dirmoqda. Bu esa o'z navbatida ayollarning aksariyatida homilani sog'lom ko'tarishi va bolaning ona qornida muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta to'siq bo'lishi oqibatida bolalarning aqliy yoki jismoniy nogiron bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda bu holat butun dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turib, oldini olish chora tadbirlarini topish bilan bir qatorda, imkoniyati cheklangan bo'lib tug'ilgan yoki orttigan bolalarni jamiyatda, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar ustida ish olib borilmoqda. Buning uchun butun diqqat e'tibor ularga ilk yoshidan maxsus yondoshuvlar orqali o'z tengqurlari orasida sifatli ta'lim olishini ta'minlash masalasi keskin ko'tirilgan. Jumladan Respublikamizda ham bu borasida izchil ish olib borilmoqda. Sobiq sovet tuzimi davrida jismoniy va ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limiga munosabat, ularni faqat maxsus sharoitlarda, faqat o'ziga o'xshaganlar orasidagina ta'lim olishi mumkin degan yondoshuvning endilikda o'zini oqlamayotganligi tan olinib, ularning umumiy tarzda sog'lom tengqurlari qatorida ta'lim olishi borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki bugungi kunda bu bolalar, ularning nuqsonlari, imkoniyatlari masalasi haqidagi turli-tuman, aksariyat hollarda esa qarama-qarshi munosabatlar mavjud bo'lib, bunday bolalar va ularning ta'limiga bo'lgan munosabatni jiddiy va qaytadan ko'rib chiqish ehtiyoji kelib chiqmoqda. Ular uchun qulay hamda sifatli ta'lim berishni



ta'minlash, davlatimizning siyosati darajasidagi masalalar qatoridan o'rin olgan. Shu bois mazkur maqolada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar, ularning maxsus, umumiy, yakka tartibdagi ta'limining chuqur tahlili keng pedagogik jamoa hukmiga, muhokamasiga havola qilinadi. Maqolada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha mavjud tajribalar, fikrlar, munosabatlar chuqur o'rganilgan, mavjud dalillarga asoslangan ma'lumotlar keltirilgan. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'rganish bo'yicha

O'rta Osiyo allomalari va mutafakkirlaridan: Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Farg'oniylar ishlab chiqqan ruhiyatni o'rganish metodlari, Mir Alisher Navoiyning insonlarning ichki kechinmalari, bola tarbiyasi haqidagi fikrlari va barcha asarlarida ta'limga oid ta'kidlab o'tgan fikrlari, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, zamondoshlarimiz M.G.Davletshin, A.Asqarxo'jaev, M. Vohidov, E. G'oziev, G'.B.Shomuarov, K.Mamedovlar tomonidan umumiy va maxsus psixologiya, oila psixologiyasi, bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar materiallari o'rganildi. Butun dunyodagi yirik psixologlardan J.Piaje, E.Segen, A.Petseld, Luriya, L.S.Vigotskiy, Kashenko, Korsunskiy, T.A.Vlasova, S.Pevzner, V.V. Lebedinskiy, P.P.Blonskiy, L.V.Zankovlarning ilmiy qarashlari, dalillari o'rganildi va maqolada keltirilib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi bandlar kiritilgan.



Afsuski, dunyoning barcha joylarida ham bolalar huquqlari ayniqsa anomal bolalarga e'tibor qoniqarli emas, ya'ni ularning hamma qatori imkoniyatlardan foydalanishlari, ta'lim olishlari, jamiyat ravnaqiga birdek hissa qo'shishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan. Maktabga qabul qilingan ayrim bolalar uni to'liq bitira olmayaptilar, jismoniy va ruhiy muammolari bor bolalar uyda o'tiribdi, ta'lim olishdan, kasb o'rganishdan mahrum yoki chegaralangan. 1993-yil 1-dekabrda 153ta mamlakat bola huquqlari haqidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo'li bilan o'zlarining bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyorliklarini ko'rsatdilar. Bu konvensiya butun jahon bolalariga xos bolalar huquqlari to'g'risidagi B.M.T.ning shartnomasidir.

Bu borada Yangi O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamiga ancha keng. Xususan 2020-yil 13 oktabdagi o'zbekiston respublikasi prezidentining PQ-4860 sonli “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari tog'risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir bir qator normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqladi. 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekistonda inklyuziv talimni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga talim- tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

1. Alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qoyiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash.
2. Ushbu ta'lim muassasalarini kerakli adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish.
3. Inklyuziv ta'lim tizimi tashkil etish ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqa) shuningdek, tegishli xodimlar



bilan ta'minlash(maxsus o'qituvchilar, bolalarning psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar).

Qaror bilan umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarning inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.U quyidagilarni nazarda tutadi 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

I bosqich (2020-2022 y)

normativ bazani takomillashtirish;malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlash;zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

- aholi o'rtasida ijobiy- ijtimoiy muhitni shakllantirish;alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;inklyuziv ta'lim tizimini tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish.

II bosqich (2023-2025 y)

inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o'qitish usullarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'rish;



o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) sonini optimallashtirish.

Shu bilan birga, Xalq ta'limi tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ularning ta'lim olishga bo'lgan teng huquqlarini ta'minlash borasida ayrim bo'shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan:

a) inklyuziv ta'limni tashkil etish sohasida:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'liqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etilmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;



alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonining murakkabligi va shaffof emasligi turli shakldagi korrupsiya holatlariga sabab bo'lmoqda;

b) kadrlarni tayyorlash sohasida:

umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash talab etilmoqda;

pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta'lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishda qator muammolar yuzaga kelmoqda;

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim haqida yetarli ma'lumotlarga ega emasligi inklyuziv ta'limni joriy etishning samarasizligiga olib kelmoqda;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta'lim bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmagan;

v) o'quv jarayonini tashkil etish sohasida:

umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berish metodikasi ishlab chiqilmagan;



alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari zarur maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan;

d) inklyuziv ta'lim tizimini moliyalashtirish sohasida:

inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun yetarli mablag'larni samarali va shaffof tizim asosida taqsimlash va foydalanish talab etilmoqda;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun o'quv jihozlari va materiallarini yangilash, maktab binolarida inklyuziv ta'limni joriy etishga qaratilgan sharoitlar yaratish uchun davlat budjetidan ta'lim muassasalariga yetarli mablag'lar yo'naltirilmayapti.

Shu muammolar yechimi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori 2020-2025- yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qaralmoqda. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi;
- davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta'lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;



- inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;
- inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;
- o'quvchilar ta'limiy ehtiyojlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;
- inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi;
- pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;
- inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi;
- inklyuziv ta'lim muassasalarining Internet tarmog'iga to'liq ulanishi ta'minlanadi;
- inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilarni qabul qilish va boshqa ta'lim muassasalariga o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi joriy etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun faqat ta'lim berish uchun xizmat qiluvchi dastur emas, undan ko'zlangan maqsad inson shaxsiga hurmat, insonparvarlik aqidalarining mustahkamlanishi, har bir insonning qay holatda ekanligidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ilm-u tafakkur bulog'idan atrofida bilari bilan barobar tarzda qonib suv ichishlari uchun yetarli barcha imkoniyat va sharoitni yaratishdan iborat. Jismonan nosog'lomlik bu ayb emas, asosiysi qalbdagi buyuk ma'naviyatga putur yetmasin. Ma'naviy boylikni o'zlashtirishga bo'lgan sa'y- harakatlar



hozirgi kungidek shiddatli bo'lsa, rivojlanish va yuksalish ham o'z shiddati bilan bizlarga hamroh bo'lishda davom etadi. Biz bunga ishonamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://nauchniyimpuls.ru>
2. <https://norma.uz>
3. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori
5. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari
6. Muzaffarova X.N., Tursunqulova O. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish masalalari Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni nomli respublika ilmiy- amaliy konferentsiyasi 20.06. 2021y